

Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasi notiqlik san'ati bo'yicha 2019 yil uchun tanlovni e'lon qiladi



Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlarining nemis tilini o'rganuvchi talabalari o'rtasida notiqlik san'ati bo'yicha navbatdagi tanlovni e'lon qiladi.

Tanlovdan ko'zlangan maqsad:

- O'zbekistonda nemis tili rivojiga hissa qo'shish;
- Global ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy muammolarga talabalar e'tiborini qaratish;
- Talabalarning ma'lum bir masala borasida o'z nuqtai nazarlarini nemis tilida ifoda etish mahoratini rivojlantirish.

G'oliblar quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- tilni bilish;
- tanlangan mavzuni yoritish;
- notiqlik san'ati: nutqstrukturasi;
- ritorika vositalarini qo'llash, intonatsiya.

Tanlov mavzulari:

1. Was ist das Besondere am Navruz-Fest? Welche Bräuche gibt es und wie feiern Sie es persönlich? Welchen deutschen Feiertag könnte man mit dem Navruz Fest vergleichen?

Navro'z bayrami mohiyati nimada? Qanday urf-odatlar bor va shaxsan siz ularni qanday nishonlaysiz? Qaysi nemis bayramini Navro'z bayrami bilan taqqoslash mumkin?

2. Kann man Geschichte einfach neu bauen oder geht nicht eher durch den Abriss von alten Gebäuden auch die Geschichte einer Stadt verloren?

Tarixni shunchaki yangidan qurish mumkinmi yoki eski imoratlarni buzish orqali shaharning tarixi yo'qolmaydimi?

3. Im Mai wird der Bundespräsident Usbekistan besuchen. Welche Impulse erwarten Sie von dieser Reise, in welchen Bereichen können die deutsch-usbekischen Beziehungen besonders wachsen? Wo sehen Sie eventuelle Schwierigkeiten?

May oyida Germaniya prezidenti O'zbekistonga tashrif buyuradi. Ushbu tashrifdan nimalarni qutyapsiz, qaysi sohalarda nemis-o'zbek aloqalari kuchayishi mumkin? Qaysi yo'nalishlarda ma'lum qiyinchiliklarni ko'ryapsiz?

4. Ablauf eines Studiums in Usbekistan und eines Studiums in Deutschland. Worin sehen Sie die Vor- und Nachteile des jeweiligen Systems?

O'zbekiston va Germaniyadagi oliy ta'lim o'rtasidagi farq. Ikkala tizimning afzallik va kamchiliklari nimadan iborat deb o'ylaysiz?

Har bir ishtirokchi yuqorida keltirilgan mavzulardan biriga o'z nutqini (**5 daqiqagacha**) oldindan tayyorlashi lozim.

Plakatlar va Power-Point taqdimotlaridan foydalanilmasligini so'rab qolamiz.

Tanlov ishtirokchisiga qo'yiladigan talablar:

- nemis tili bo'yicha mukammal bilim;

- oliygohning 3 yoki 4-kursida o'qish;
- o'tgan yillar g'oliblari va ishtirokchilari tanlovda qaytadan ishtirok ETMAYDILAR.

Tanlovning 1-bosqichi **28.01.2019** y. soat **15:00** da TIQXMMI bo'lib o'tadi.

Murojaat uchun "Tillar" kafedrasining nemis tili katta o'qituvchisi A'zamxon Ergashovna. bilan bog'lanishingiz mumkin: +998(90)176-91-14